

## EDITORIAL LEADERSHIP

### Editor-in-Chief:

**Samandar Niyazimbetov**, DSc (History), Professor

### Deputy Editor:

**Mukhriddin Sodirjonov**, PhD (Sociology), Associate Professor  
*Namangan State University*

### Editorial Board:

**Bozorkul Karimov**, PhD (Philosophy), Associate Professor  
*Bukhara State Technical University*

**Dilfuza Rasulova**, DSc (Economics), Professor  
*Graduate School of Business and Entrepreneurship under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan*

**Dilshod Sattarov**, PhD (Law), Associate Professor  
*Customs Institute of the State Customs Committee*

**Djamaliddin Musayev**, PhD (Law), Associate Professor  
*Customs Institute of the State Customs Committee*

**Farkhod Abdurakhmonov**, DSc (Economics), Associate Professor  
*Tashkent State University of Economics*

**Ibrohim Ikramov**, PhD (Philosophy), Associate Professor  
*Namangan State University*

**Jasur Gaipov**, PhD (Economics)  
*Tashkent State University of Economics*

**Kamaldin Yunusov**, DSc (Political Science), Professor  
*Andijan State University*

**Kamoliddin Sirojiddinov**, PhD (Economics), Associate Professor  
*Namangan State University*

**Khusan Abuev**, PhD (History), Associate Professor  
*Navoi State University*


**Komiljon Tajibaev**, PhD (Economics)  
*Namangan State University*

**Marapat Akayeva**, PhD (Law), Associate Professor  
*Namangan State University*

**Nurbek Toshkanov**, PhD (Law)  
*Tashkent State University of Law*

**Shavkat Turayev**, PhD (Philosophy), Associate Professor  
*National University of Uzbekistan*

**Ural Khaydarov**, DSc (Economics), Associate Professor  
*Tashkent State University of Economics*




## CERTAIN ISSUES IN THE RECOVERY OF OUTSTANDING CUSTOMS DUTY LIABILITIES

Anvar Shadmankulov<sup>1</sup>, Murodjon Ramazonov<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> PhD in Economics, Associate Professor, The Customs Institute of the Customs Committee under the Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan.

<sup>2</sup> The Customs Institute of the Customs Committee under the Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan.

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.18627693>

**Key words:** *customs payments, state budget revenues, customs arrears, debt recovery mechanisms, post-clearance audit, customs valuation, HS classification, digitalization of customs administration, procedural enforcement, foreign economic activity participants.*

### ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of the system for collecting customs payments in the Republic of Uzbekistan, its role in forming state budget revenues, and the mechanisms for managing customs arrears. It substantiates the financial, protective, regulatory, and control functions performed by customs payments and presents a statistical overview of the composition of revenues transferred to the state budget during 2015–2025. The study examines additional assessments identified after customs clearance, with particular attention to arrears arising from the understatement of customs value, incorrect classification under the HS (Commodity Nomenclature for Foreign Economic Activity) codes, and the unjustified application of customs privileges. It also outlines the current procedural framework for debt recovery, as well as the capabilities and practical challenges associated with the “Debt Accounting Module.” Based on the experiences of Russia and Türkiye, a comparative analysis is conducted with regard to digitalization, centralization, and the enhancement of procedural clarity. The article concludes with specific proposals aimed at improving the efficiency of customs debt recovery, strengthening notification mechanisms for participants in foreign economic activity, and introducing electronic appeal procedures.

## BOJXONA TO‘LOVLARIDAN QARZDORLIKNI UNDIRISHNING AYRIM MASALALARI

**Kalit so‘zlar:** *bojxona to‘lovlari, davlat byudjeti daromadlari, bojxona qarzdorliklari, qarzdorlikni undirish mexanizmlari, bojxona rasmiylashtiruvidan keyingi audit, bojxona qiymatini baholash, TIF TN bo‘yicha tasniflash, bojxona ma‘murchiligini raqamlashtirish, protsessual majburiy undirish, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari.*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida bojxona to‘lovlari undirish tizimi, uning davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi o‘rni hamda bojxona qarzdorliklarini boshqarish mexanizmlari kompleks tahlil qilinadi. Bojxona to‘lovlari moliyaviy, himoya, tartibga soluvchi va nazorat funksiyalarini bajarishi asoslab beriladi hamda 2015–2025-yillar kesimida byudjetga o‘tkazilgan tushumlar tarkibi statistik ma‘lumotlar asosida yoritiladi. Tadqiqotda bojxona rasmiylashtiruvidan so‘ng aniqlanadigan qo‘shimcha hisob-kitoblar, xususan bojxona qiymatini past ko‘rsatish, TIF TN kodlarini noto‘g‘ri tasniflash va imtiyozlardan asossiz foydalanish oqibatida yuzaga kelayotgan qarzdorliklar dinamikasi tahlil etiladi. Shuningdek, qarzdorlikni undirishning amaldagi protsessual tartibi, “Qarzdorlik moduli”ning imkoniyatlari va amaliy muammolari ochib beriladi. Rossiya va Turkiya tajribasi asosida raqamlashtirish, markazlashtirish va protsessual aniqlikni kuchaytirish bo‘yicha qiyosiy tahlil o‘tkaziladi. Yakunda bojxona qarzdorliklarini undirish samaradorligini oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini xabardor qilish hamda elektron apellyatsiya mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha aniq takliflar ilgari suriladi.

Bojxona to‘lovlari O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining muhim manbalaridan biri bo‘lib, mamlakat iqtisodiy tizimida alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o‘tilayotgan tovarlar bo‘yicha bojxona to‘lovlari undirish bojxona rasmiylashtiruv jarayonining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon qonunchilik normalari asosida to‘liq tartibga solingan hamda tegishli nazorat mexanizmlari orqali amalga oshiriladi.

Bojxona organlari faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bojxona to‘lovlarining o‘z vaqtida va to‘liq undirilishini ta‘minlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun bojxona organlari to‘lovlarni undirishning samarali tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarini joriy etadi hamda ularni muntazam ravishda takomillashtirib boradi. Natijada bojxona to‘lovlari tashqi savdo operatsiyalarini tartibga solishning muhim instrumenti sifatida namoyon bo‘ladi va davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi [1].

Tashqi savdoni bojxona to‘lovlari orqali tartibga solish bir qator strategik vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Birinchidan, ushbu mexanizm orqali tashqi savdoning maqbul tarkibi shakllantiriladi, ya‘ni iqtisodiyot uchun zarur va ustuvor bo‘lgan tovarlar importi rag‘batlantiriladi. Ikkinchidan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni adolatsiz yoki nosog‘lom tashqi raqobatdan himoya qilish ta‘minlanadi, bu esa milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Uchinchidan, bojxona to‘lovlari davlat byudjeti daromadlari qismini shakllantirishda bevosita ishtirok etadi hamda ushbu mablag‘lar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yo‘naltiriladi [2].

**Tahlil.** Bojxona to‘lovlari undirish tizimi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir nechta funksiyalarni bajaradi: moliyaviy (davlat byudjeti daromadlarini ta‘minlash), himoya (milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish), tartibga soluvchi (tashqi savdo jarayonlarini boshqarish) va nazorat (bojxona qonunchiligiga rioya etilishini ta‘minlash). Mazkur yo‘nalishlarda bojxona organlarining samarali faoliyati mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishishning muhim omili hisoblanadi.

**1-jadval.** O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan 2015–2025-yillarda davlat byudjetiga o‘tkazilgan bojxona to‘lovlari tarkibi (%)

№	Bojxona to‘lovlari turlari	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
1	Import boji	24,9	25,8	22,5	16,1	13,5	14,6	14,3	12,5	16,0	15,8	15,4
2	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	54,5	54,1	60,4	74,5	78,5	79,8	82,1	84,1	80,0	77,7	76,5
3	Aksiz solig‘i	17,3	17,2	14,5	4,6	4,6	3,5	0,9	0,7	0,1	2,1	2,5
4	Bojxona yig‘imlari va boshqa to‘lovlar	3,3	2,9	2,6	4,5	3,4	2,1	2,6	2,7	3,9	4,3	5,6
5	<b>Jami</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>

Manba: Bojxona qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ayrim sabablarga ko‘ra bojxona rasmiylashtiruv jarayonida undirilmay qolgan hamda keyinchalik qo‘shimcha hisob-kitoblar natijasida aniqlangan qarzdorlikni undirish bojxona to‘lovlarining to‘liqligini ta‘minlash tizimida muhim o‘rin tutadi.

Bojxona to‘lovlari bo‘yicha qarzdorlik – bu yuridik yoki jismoniy shaxslarning bojxona chegarasi orqali olib o‘tilgan tovarlar uchun qonunchilikda belgilangan muddatlarda to‘lanmagan bojxona bojlari, soliqlar, yig‘imlar va jarimalar summasidir. To‘lovchining o‘z majburiyatlarini belgilangan muddatda bajarmasligi natijasida qarzdorlik yuzaga keladi va u davlat byudjeti daromadlariga bevosita salbiy ta‘sir ko‘rsatadi [3]. Bojxona to‘lovlari bo‘yicha qarzdorlikning mavjudligi nafaqat to‘lovchining moliyaviy holatiga, balki umuman iqtisodiy tizimga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Qarzdorlik davlat byudjeti daromadlarining rejadan kam tushishiga, moliyaviy barqarorlikning buzilishiga hamda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu bois bojxona to‘lovlari bo‘yicha qarzdorlikni o‘z vaqtida undirish davlat byudjeti daromadlar qismining to‘liq shakllanishini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi [4].

O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga muvofiq, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining eksport-import operatsiyalari bo‘yicha bojxona to‘lovlari to‘lash muddatlari aniq belgilangan. Qonunchilikka ko‘ra, bojxona to‘lovlari bojxona deklaratsiyasi qabul qilinishidan oldin yoki u qabul qilingan paytda to‘lanishi lozim. Mazkur talabning asosiy maqsadi tovarlarning bojxona hududiga olib kirilishi yoki undan olib chiqilishi jarayonida davlat manfaatlarini himoya qilish hamda byudjet daromadlarini o‘z vaqtida ta‘minlashdan iborat [5].

Belgilangan muddatlarda to‘lanmagan bojxona to‘lovlari avtomatik ravishda qarzdorlik maqomini oladi va to‘lovchi uchun qo‘shimcha moliyaviy majburiyatlarni keltirib chiqaradi. Qarzdorlik tarkibiga belgilangan muddatda to‘lanmagan bojxona to‘lovlari summasi, shuningdek to‘lovni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berilgan hollarda hisoblanadigan foizlar ham kiradi. Mazkur qo‘shimcha majburiyatlar qarzdorlikning umumiy hajmini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Qarzdorlik turli holatlarda yuzaga keladi. Eng sodda holat – to‘lovchining belgilangan muddatda to‘lovni amalga oshirmasligi natijasida dastlabki qarzdorlikning shakllanishidir. Biroq amaliyotda qarzdorlik yanada murakkab vaziyatlarda ham paydo bo‘lishi mumkin.

Xususan, tovarlar “erkin muomalaga chiqarish” bojxona rejimiga joylashtirilganidan keyin ham qarzdorlik yuzaga kelishi ehtimoli mavjud. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, tovarlar chiqarib yuborilgandan so‘ng uch yil davomida bojxona auditi orqali qayta nazorat qilinishi mumkin. Audit jarayonida tovarning bojxona qiymati, tasnif kodi yoki boshqa muhim ko‘rsatkichlari qayta tekshiriladi. Agar nomuvofiqlik aniqlansa, qo‘shimcha bojxona to‘lovlari hisoblanadi. Ushbu qo‘shimcha summalar belgilangan muddatda to‘lanmagan taqdirda, qonunchilikka muvofiq qarzdorlik yuzaga keladi.

Demak, qarzdorlik nafaqat dastlabki bojxona rasmiylashtiruvi jarayonida, balki keyingi bojxona nazorati va audit bosqichlarida ham vujudga kelishi mumkin.

Bojxona to‘lovlari to‘lash bo‘yicha quyidagi qarzdorlik turlari yuzaga keladi [4]:


- kechiktirib yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash muddati tugaganidan keyin to‘lanmagan bojxona to‘lovlari;
- o‘z vaqtida to‘lanmagan davriy bojxona to‘lovlari;
- quvur transporti yoki elektr uzatish liniyalari orqali olib o‘tiladigan tovarlar uchun o‘z vaqtida to‘lanmagan bojxona to‘lovlari;
- tovarlar chiqarib yuborilgandan so‘ng o‘tkazilgan bojxona nazorati natijasida hisoblangan qo‘shimcha bojxona to‘lovlari;
- tovarlardan boshqa maqsadda foydalanilishi natijasida imtiyozlar bekor qilinishi oqibatida kelib chiqqan bojxona to‘lovlari;
- bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o‘tilgan tovarlar bo‘yicha undirilishi lozim bo‘lgan bojxona to‘lovlari;
- bojxona rejimlari talablariga rioya qilinmaganligi natijasida undirilishi lozim bo‘lgan bojxona to‘lovlari;
- to‘lovchining tashabbusi bilan aniqlangan va hisoblangan qo‘shimcha bojxona to‘lovlari.

**2-jadval.** 2022–2025-yillar kesimida bojxona rasmiylashtiruvidan so‘ng qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlari hajmi (mlrd so‘m)

Ko‘rsatkichlar nomi	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil (11 oy)
<b>Qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlari</b> (BYuDLarni rasmiylashtiruvidan so‘ng)	<b>220,87</b>	<b>203,97</b>	<b>840,1</b>	<b>1075,56</b>
Noto‘g‘ri qo‘llanilgan imtiyoz	82,54	82,81	327,11	224,699
Bojxona qiymati pastligi	97,07	68,78	202,23	148,94
Noto‘g‘ri TIF TN kod	14,94	20,36	104,52	122,272
Noto‘g‘ri qo‘llanilgan preferensiya	9,78	9,89	24,43	10,613
Boshqa	16,54	22,13	181,88	569,038

Manba: Bojxona qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Shuningdek, quyidagi rasmda so‘nggi uch yilda bojxona to‘lovlaridan qarzdorlikning kelib chiqish yo‘nalishlari kesimida ko‘rishimiz mumkin.



Rasm. 2023-2025 yillar kesimida qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlari (mlrd so‘m)

Ushbu yo‘nalishlarda aniqlangan qarzdorliklar qo‘shimcha bojxona to‘lovlarini undirish to‘g‘risidagi qaror asosida Bojxona qo‘mitasining “Qarzdorlik hisobi” elektron moduliga kiritiladi. Mazkur qarorda qarzdorlik aniqlangan BYuD raqami, rasmiylashtirgan yoki rasmiylashtirayotgan bojxona posti kodi, aniqlangan kamchilik mazmuni, to‘lov turi, aniqlangan qarzdorlik miqdori hamda ijrochi xodim to‘g‘risidagi ma‘lumotlar aks ettiriladi. Shuningdek, tizim orqali qarzdorlikning joriy maqomi monitoring qilinishi mumkin.

Agar bojxona to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha qarzdorlik bazaviy hisoblash miqdorining yigirma foizidan oshmasa (ya‘ni 82 400 so‘mdan kam bo‘lsa), bunday qarzdorlik shakllantirilmaydi. Bojxona to‘lovlari va penyalar bo‘yicha qarzdorlik amalda to‘langan kunda tugatilgan deb hisoblanadi.

Hozirda bojxona organlarida “Qarzdorlik moduli” mavjud bo‘lsa-da, mazkur tizim asosan ichki foydalanishga mo‘ljallangan. Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini qarzdorlik to‘g‘risida xabardor qilish mexanizmi aniq tartibga solinmagan. Natijada, tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari ko‘plab holatlarda o‘zlarida qarzdorlik mavjudligi haqida kech xabardor bo‘lmoqda. Bu esa penyalar hisoblanishiga va qarz miqdorining ortib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bojxona to‘lovlari bo‘yicha qarzdorliklarning salmoqli qismi bojxona rasmiylashtiruvidan keyin, ya‘ni bojxona auditi natijasida aniqlanmoqda. Mazkur holat dastlabki rasmiylashtirish jarayonida xavflarni aniqlash mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligini ko‘rsatadi. Natijada, tadbirkorlik subyektlari uchun kutilmagan qo‘shimcha moliyaviy majburiyatlar yuzaga kelmoqda va qarzdorlik hajmi ortib bormoqda.

Qarzdorliklarning asosiy qismi bojxona qiymatini asossiz ravishda past ko‘rsatish, TIF TN kodlarini noto‘g‘ri tasniflash hamda bojxona imtiyozlaridan noto‘g‘ri foydalanish bilan bog‘liq. Shu bois bojxona auditi natijalari asosida xavf profillarini muntazam ravishda yangilab borish va takomillashtirish zarur.

Amaliyotda qarzdorlarga nisbatan majburiy undirish choralari qo‘llash ko‘pincha kechikadi yoki murakkab tartib-taomillar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan birga, qarzdorlarga apellyatsiya berish, to‘lovlarni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqlaridan foydalanish tartibi yetarli darajada tushuntirilmagan va soddalashtirilmagan. Bu esa nizolar sonining ortishiga hamda qarzdorliklarning uzoq muddat saqlanib qolishiga olib kelmoqda.

**Xorijiy davlatlar tajribasi.** Qarzdorliklarni boshqarish va undirish sohasida Rossiya Federatsiyasi bojxona organlari tajribasi e'tiborga loyiqdir. 2021-yildan boshlab Rossiya bojxona organlari bojxona to'lovlari bo'yicha qarzdorliklar va jarimalarni tezkor hamda samarali undirish, shuningdek, bojxona xodimlari ish yuklamasini kamaytirish maqsadida axborot texnologiyalarini faol joriy etgan. Rossiya Federal bojxona xizmati bojxona to'lovlarni ro'yxatdan o'tkazish, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini qarzdorlik haqida xabardor qilish hamda undirish choralari ko'rish bilan bog'liq tartib-taomillarni raqamlashtirish va optimallashtirish choralari amalga oshirgan [6].

Avvalgi amaliyotda qarz tovar deklaratsiya qilingan bojxona organi tomonidan undirilgan bo'lib, bu bir qarzdor bilan bir nechta bojxona organlarining shug'ullanishiga olib kelgan hamda banklar va boshqa davlat organlari bilan o'zaro hamkorlikni murakkablashtirgan.

Rossiya Federatsiyasining "Bojxona tartibga solish to'g'risida"gi Federal qonuni asosida bojxona organlari "Shaxsiy kabinet" axborot tizimi orqali tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari bilan elektron muloqot olib boradi. Ishtirokchilar o'z shaxsiy kabinetlarida qarzdorlik to'g'risidagi bildirishnomalarni, jarimalar, avans to'lovlari va depozit mablag'laridan ushlab qolish haqidagi xabarlarni onlayn tarzda olish imkoniyatiga ega. Yangi tizimga ko'ra, qarzdorlik deklarantning soliq rezidentligi prinsipi asosida undiriladi. Ya'ni, qarzdor qaysi hududda soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, qarzni undirish ishlari o'sha hududdagi bojxona organi tomonidan amalga oshiriladi. Agar bir yuridik shaxs turli bojxona postlarida tovarlarni deklaratsiya qilgan bo'lsa va qarzdorlik aniqlansa, bu haqdagi ma'lumot avtomatik ravishda soliq rezidenti joylashgan hududdagi bojxona organiga yuboriladi.

Mazkur tizim quyidagi ustunliklarni ta'minlagan:

- a) Qarzdorliklarni undirish funksiyasini bitta hududiy bojxona organida markazlashtirish;
- b) Soliq, sud va majburiy ijro organlari bilan o'zaro hamkorlik samaradorligini oshirish;
- c) Bojxona organlari o'rtasida ish yuklamasini manzilli va muvozanatli taqsimlash.

Shuningdek, qarzdor mol-mulki joylashgan hududdagi bojxona organining hududiy yaqinligi mol-mulkni xatlash va boshqa ta'sirchan choralarni qo'llashda muhim ustunlik yaratadi. Mol-mulk va tovarlarga taqiq qo'yish qarzni bevosita qoplamasa-da, qarzdorni to'lov majburiyatlarini bajarishga undaydi hamda taqiq qo'yilgan mol-mulkka nisbatan majburiy ijro choralari qo'llash imkonini beradi.

Turkiya bojxona boshqarmasida bojxona qarzlarni undirish tizimi o'ziga xos institutsional va protsessual xususiyatlarga ega. Soliq yig'uvchi vakolatli organ sifatida Turkiya bojxona boshqarmasi (*bundan buyon – TBB*) milliy qonunchilikka muvofiq bojxona qarzlarni boshqarish va undirishni amalga oshiradi. TBB amaliyotida qarzdorlik tushunchasi bojxona to'lovlari, ularning qo'shimcha majburiyatlari hamda jarimalarni o'z ichiga olgan barcha davlat talablarini anglatadi.

Nazorat va tekshiruvlar natijasida bojxona to'lovlari undirilgan yoki kam miqdorda undirilganligi aniqlangan taqdirda, bojxona organi tomonidan bojxona to'lovlari undirilgan kundan e'tiboran uch yil ichida qarzdorga xabar berish mumkin. Bunda bojxona qarzi yuzaga kelgan sanadan boshlab bojxona to'lovlari to'liq qoplangunga qadar bo'lgan davr uchun kechiktirilgan to'lovlar bo'yicha qo'shimcha foiz (*kompensatsiya foizi*) hisoblanadi. Kam to'langan yoki to'lanmagan bojxona to'lovlari hamda jarimalar maxsus elektron modulda qayd etiladi. Undirish jarayonining barcha bosqichlari (bojxona qarzlariga oid protsessual harakatlar) ham mazkur modulda aks ettiriladi. Ushbu tizim orqali bojxona qarzining to'langan yoki to'lanmaganligi ustidan monitoring olib boriladi.

Nazorat va tekshiruvlar natijasida aniqlangan bojxona qarzi qarzdorga xabar qilingan kundan boshlab o'n besh kun ichida to'lanishi lozim. Bojxona to'lovlari bilan bir vaqtda undirilishi zarur bo'lgan jarimalar ham xuddi shu tartibda xabardor qilinadi va to'lanadi. Bojxona qarzi to'g'risida xabardor qilingan to'lovchi bir qator qonuniy huquqlarga ega. Xususan, u bildirishnoma olingan kundan boshlab 15 kun ichida bojxona to'lovlari va jarimalar bo'yicha apellyatsiya shikoyati berish huquqiga ega. Shuningdek, tovarlar musodara qilingan va realizatsiya qilinmagan taqdirda, qarzdor kechiktirib to'lash yoki bo'lib-bo'lib to'lash to'g'risida iltimosnoma kiritishi mumkin. Belgilangan muddatda to'lanmagan bojxona qarzlariga nisbatan 6183-sonli "Davlat talablarini undirish to'g'risida"gi protsessual qonun va unga oid qonunosti hujjatlar qo'llaniladi. Ushbu bosqichdan so'ng bojxona qarzi inkasso tartibida so'zsiz undiriladi. So'zsiz undirish mexanizmlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) agar qarzdor tomonidan taqdim etilgan kafolat mavjud bo'lsa, kafolat predmeti pulga aylantiriladi;
- b) qarzni qoplash uchun yetarli miqdordagi tovar yoki mol-mulk realizatsiya qilinadi;

c) zarurat tug'ilganda qarzdorning bankrotligi masalasi ko'rib chiqiladi.

Kechiktirib to'lash muddati tugagan kundan boshlab har oy uchun bojxona to'lovlarining to'lanmagan qismiga (jarimalar bundan mustasno) foiz hisoblanadi. Mazkur jarayonlardan so'ng, agar bojxona to'lovlari to'lash muddati o'tgan kalendar yil boshidan boshlab 5 yil davomida undirilmasa, da'vo muddati tugaydi (muddati to'xtatib turilgan holatlar bundan mustasno). Da'vo muddati o'tgan bojxona qarzi bekor qilinadi [7].

### **Xulosa**

O'zbekiston, Rossiya va Turkiya davlatlarida bojxona to'lovlaridan qarzdorliklarni aniqlash va undirish mexanizmlari konseptual jihatdan o'xshash bo'lib, asosan protsessual muddatlar va tashkiliy yondashuvlarda farqlanadi. Har uchala davlatda ham qarzdorlik aniqlangandan so'ng rasmiy bildirishnoma yuboriladi hamda belgilangan muddatlarda to'lanmagan qarzdorlikni majburiy undirish choralariga o'tiladi. Huquqiy asoslar turlicha bo'lsa-da, umumiy maqsad bojxona to'lovlarini to'liq undirish va davlat byudjetiga tushumlarni ta'minlashdan iborat. Rossiya tajribasi raqamlashtirish va avtomatlashtirish yo'nalishida jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi qarzdorliklarni aniqlash va undirish samaradorligini oshirgan hamda bojxona organlari xodimlari ish yuklamasini kamaytirgan. Qarzdorlikni undirishning deklarantning soliq rezidentligi prinsipi asosida markazlashtirilgan modeli institutsional samaradorlikni kuchaytirgan.

O'zbekiston Respublikasi bojxona tizimida ham "Qarzdorlik moduli" joriy etilgan bo'lib, u ichki boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini xabardor qilish, huquqlarini amalga oshirish va jarayonlarda ishtirokini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha institutsional yechimlar talab etiladi. Turkiya tajribasida esa qarzdor xabardor qilingandan so'ng uning protsessual huquqlari – apellyatsiya berish, kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash – aniq va mustahkam tartibga solingan. Shuningdek, 5 yillik da'vo muddati instituti huquqiy aniqlikni ta'minlaydi.

### **Takliflar**

Xorijiy davlatlar tajribasini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasida bojxona to'lovlaridan qarzdorlikni undirish tizimini takomillashtirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

Amaldagi "Qarzdorlik moduli" asosida tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun "Shaxsiy kabinet" funksiyasiga ega mobil ilova va veb-platforma ishlab chiqish, unda qarzdorlik, penyalar, jarimalar va protsessual bosqichlar real vaqt rejimida aks ettirilishi.

Bojxona auditi natijalari asosida xavf profillarini muntazam yangilash hamda takroriy xatoliklarning oldini olish maqsadida tadbirkorlik subyektlariga onlayn maslahat va avtomatik ogohlantirish tizimini joriy etish. "Yuqori xavf darajasiga ega deklarantlar" reyestrini shakllantirish hamda ularga nisbatan kuchaytirilgan bojxona auditi tartibini qo'llash. Qarzdor xabardor qilingan zahoti onlayn apellyatsiya berish, kechiktirib to'lash yoki bo'lib-bo'lib to'lash bo'yicha elektron ariza topshirish imkonini beruvchi integratsiyalashgan elektron tizimni joriy etish.

Mazkur takliflarni amalga oshirish bojxona qarzdorliklarini undirish jarayonini soddalashtirish, tadbirkorlik subyektlari uchun ma'muriy yuklamani kamaytirish, protsessual shaffoflikni oshirish hamda davlat byudjetiga tushumlar barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shadmankulov A. **Bojxona qiymati**: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Bojxona instituti, 2023.
2. Shadmankulov A. Bojxona qiymatiga ta'sir qiluvchi omillar // *O'zbekiston bojxona axboroti* jurnali. – 2024. – 2-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi rasmiy sayti. – URL: <https://gov.uz/oz/miit/sections/view/12768> (murojaat qilingan sana ko'rsatilishi tavsiya etiladi).
4. Pardayev T. Bojxona to'lovlari qarzdorligining kelib chiqish sabablari va uning oldini olish choralari // *Biznes ekspert* jurnali. – 2023. – 11-son. – 17-bet.
5. O'zbekiston Respublikasi **Bojxona kodeksi**. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari milliy bazasi.
6. World Customs Organization (WCO) rasmiy sayti. – URL: <https://www.wcoomd.org> (murojaat qilingan sana ko'rsatilishi tavsiya etiladi).
7. World Customs Organization. *Debt Management in Customs Administrations*. – June 2021. – URL: [https://www.wcoomd.org/-/media/wco/public/global/pdf/topics/key-issues/revenue-package/debt-management\\_en.pdf?la=en](https://www.wcoomd.org/-/media/wco/public/global/pdf/topics/key-issues/revenue-package/debt-management_en.pdf?la=en) (murojaat qilingan sana ko'rsatilishi tavsiya etiladi).
8. O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari (rasmiy statistik va tahliliy axborotlar).

## ILMIY TAQRIZ

Taqriz etilayotgan maqola bojxona to'lovlari bo'yicha qarzdorlikni aniqlash va undirish tizimining nazariy-huquqiy hamda amaliy asoslarini kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, o'z dolzarbligi va amaliy yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Muallif bojxona to'lovlarini faqat fiskal tushum manbai sifatida emas, balki tashqi savdo siyosatini amalga oshirish, milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash instrumenti sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuv mavzuni kengroq makroiqtisodiy va institutsional kontekstda ko'rib chiqish imkonini beradi.

Maqolaning ilmiy ahamiyati, avvalo, bojxona to'lovlari tizimining ko'p funksiyali xarakterini ochib berishda namoyon bo'ladi. Muallif bojxona to'lovlarining moliyaviy, tartibga soluvchi, himoya va nazorat funksiyalarini o'zaro bog'liq holda tahlil qilib, ularning davlat byudjeti barqarorligiga va iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini asoslaydi. Ayniqsa, 2015–2025-yillar kesimida bojxona to'lovlari tarkibidagi o'zgarishlar bo'yicha keltirilgan statistik ma'lumotlar (*QQS ulushining ortishi, aksiz tushumlarining kamayishi, import boji dinamikasi*) fiskal yukning transformatsiyasini ko'rsatib, bojxona siyosatidagi ustuvor yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi. Bu jihat maqolani oddiy tavsifiy ish darajasidan ilmiy-tahliliy darajaga olib chiqadi. Shuningdek, 2022–2025-yillar bo'yicha qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari hajmi va ularning kelib chiqish sabablari (noto'g'ri qo'llanilgan imtiyozlar, bojxona qiymatini pasaytirish, TIF TN kodlarini noto'g'ri tasniflash va boshqalar)ning segmentatsiyasi qarzdorlikning strukturaviy omillarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa bojxona auditi mexanizmlarining samaradorligini baholash hamda xavf tahlili tizimini takomillashtirish uchun metodologik asos yaratadi. Muallifning qarzdorlikni faqat to'lov intizomi muammosi sifatida emas, balki institutsional va protsessual kamchiliklar natijasi sifatida talqin qilishi ilmiy yangilik sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Maqolada qarzdorlikning shakllanish bosqichlari aniq tasniflangan: dastlabki rasmiylashtirish bosqichi, keyingi bojxona auditi, imtiyozlarning bekor qilinishi, noqonuniy olib o'tilgan tovarlar va boshqalar. Ushbu tasnif bojxona qarzdorligini tizimli ravishda boshqarish uchun konseptual model yaratishga xizmat qiladi. Xorijiy tajribaning – xususan Rossiya va Turkiya bojxona tizimlarining – taqqoslama tahlili maqolaning ilmiy qiymatini sezilarli darajada oshiradi. Rossiyada raqamlashtirish va deklarantning soliq rezidentligi asosida markazlashtirilgan undirish modeli, Turkiyada esa protsessual huquqlarning aniq kafolatlanishi (*apellyatsiya, kechiktirish, bo'lib to'lash*) muallif tomonidan tahliliy jihatdan asoslangan. Takliflar qismi ham ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan. “Qarzdorlik moduli”ni tashqi foydalanuvchilar uchun ochiq “Shaxsiy kabinet” formatiga kengaytirish, xavf profillarini muntazam yangilash, yuqori xavfli deklarantlar reyestrini shakllantirish hamda onlayn apellyatsiya mexanizmini joriy etish kabi g'oyalar bojxona ma'muriyatchiligini modernizatsiya qilishga qaratilgan. Ushbu takliflar institutsional shaffoflikni oshirish, ma'muriy yuklamani kamaytirish va byudjet tushumlarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, maqolada ayrim jihatlar yanada kuchaytirilishi mumkin. Xususan, taklif etilayotgan islohotlarning kutilayotgan iqtisodiy samarasi (undirish koeffitsienti, qarzdorlik qisqarishi, tushumlar o'sishi) miqdoriy prognozlar bilan asoslangan taqdirda, ishning ilmiy salohiyati yanada ortgan bo'lardi. Shuningdek, statistik ma'lumotlarning metodologik asoslari batafsilroq yoritilishi maqolaning akademik darajasini mustahkamlaydi. Umuman olganda, maqola nazariy va amaliy jihatlarni uyg'unlashtirgan, dolzarb muammoga bag'ishlangan, ilmiy asoslangan va amaliy tavsiyalar bilan boyitilgan tadqiqot hisoblanadi. U bojxona ma'muriyatchiligi, fiskal siyosat va davlat moliyasi sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar uchun muhim hissa bo'la oladi hamda nashr etishga tavsiya etiladi.

### Disclaimer ©

This editorial review has been prepared by the Editorial Board of the *Journal of Fundamental Studies* for the purposes of internal editorial assessment and quality assurance within the journal's publication process. This review is intended to provide an analytical overview of the scientific content, methodological approach, and thematic relevance of the submitted work. It does not constitute peer review, does not replace independent expert evaluation, and should not be interpreted as reflecting the personal views of the author(s) or as representing the official position of the journal. The Editorial Board assumes no responsibility for the implementation, interpretation, or consequences of any observations, comments, or analytical conclusions contained in this review. The review may include content generated with the assistance of artificial intelligence tools used for editorial support purposes.

**This editorial review is provided solely to enhance transparency in the editorial process and to support the maintenance of academic and publication standards.**